

Samarqand viloyatida Demografik holat

2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni **4 360,1** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,0** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **80,9** ming nafarni, vafot etganlar **14,7** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **66,2** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **11,4** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **15,0** ming kishini, qayd etilgan nikohlar **21,2** mingtani, nikohdan ajralishlar **3,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 360,1 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

80,9 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

14,7 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

11,4 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar

15,0 *ming kishi*

Nikohlar soni

21,2 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

3,5 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Samarqand viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra **4 360,1** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **84,8** ming kishiga yoki **2,0** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 591,2** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,5** %), qishloq joylarda esa **2 768,9** ming kishi (**63,5** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 162,8** ming kishini (**49,6** %), erkaklar esa **2 197,3** ming kishini (**50,4** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 275,3	4 360,1	102,0
Samarqand sh.	593,4	604,0	101,8
Kattaqo'rg'on sh.	95,6	96,8	101,3
tumanlar:			
Oqdaryo	176,2	180,0	102,2
Bulung'ur	205,6	210,0	102,1
Jomboy	192,9	197,3	102,3
Ishtixon	280,6	286,5	102,1
Kattaqo'rg'on	298,3	304,0	101,9
Qo'shrabot	143,8	146,3	101,7
Narpay	230,5	234,5	101,7
Payariq	278,4	283,6	101,9
Pastdarg'om	389,7	398,1	102,2
Paxtachi	154,0	156,1	101,4
Samarqand	277,3	282,5	101,9
Nurobod	164,9	167,8	101,8
Urgut	569,1	582,6	102,4
Toyloq	225,0	230,0	102,2

Samarqand viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **260,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,1** kishiga ortgan (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **254,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **80,9** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,0** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,2** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **14,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **80,9** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **41,7** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **39,2** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **25,7** ming kishini (**31,8%**), qishloq joylarida **55,2** ming kishini (**68,2%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **14,7** ming kishini, shundan erkaklar **8,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,8%**), ayollar **6,5** ming kishini (**44,2%**) va shahar joylarida **5,2** ming kishini (**35,4%**), qishloq joylarida **9,5** ming kishini (**64,6%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **21,2** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,6** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,7** ming birlikka ko'paygan.

Nikohdan ajralishlar soni **3,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarish kuzatilmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **21,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **7,2** ming birlikni (**34,0%**), qishloq joylarida **14,0** ming birlikni (**66,0%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **3,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,5** ming birlikni (**42,9%**), qishloq joylarida **2,0** ming birlikni (**57,1%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik




V. Aholi migratsiyasi

2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **11 446** kishini, ko'chib ketganlar jami soni **15 048** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni
	Jami	Jami
Samarqand viloyati	11 446	15 048
Samarqand sh.	4 682	3 161
Kattaqo'rg'on sh.	493	660
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	493	498
Bulung'ur	398	690
Jomboy	378	382
Ishtixon	378	773
Kattaqo'rg'on	447	1 111
Qo'shrabot	337	767
Narpay	330	812
Payariq	285	1 127
Pastdarg'om	709	865
Paxtachi	601	1 203
Samarqand	1 158	1 117
Nurobod	196	557
Urgut	240	943
Toyloq	321	382

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
K.Tosheva
55 701 80 00 (3070)

Manzil:
